

# О'zbekistonning JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LISH YO'LIDAGI IQTISODIYOTNING ROLI

Mamajonov Lochinbek

JIDU "Xalqaro iqtisodiyot va menejment"  
fakulteti 2-bosqich talabasi.

**Annotation:** O'zbekistonning JAHON SAVDO TASHKILOTIGA (JST) a'zo bo'lishi – mamlakatning iqtisodiy o'sishi uchun muhim qadamlardan biri hisoblanadi. JAHON SAVDO TASHKILOTI – xalqaro savdoni liberallashtirish, savdo va siyosiy munosabatlarni tartibga solish bilan shug'ullanadigan hukumatlararo tashkilot hisoblanadi. Ushbu maqolada O'zbekistonning JAHON SAVDO TASHKILOTIGA a'zo bo'lishi va mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri haqida so'z boradi. Maqolada JAHON SAVDO TASHKILOTIGA a'zo bo'lishning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri, savdo siyosati va qo'shilish jarayonida yuzaga keladigan muammolar tahlil qilinadi. Bundan tashqari O'zbekistonning JAHON SAVDO TASHKILOTIGA a'zo bo'lishi mamlakatni global savdo tizimiga yanada yaqinlashtiradi. Bu esa O'zbekistonning boshqa davlatlar bilan savdo qilishni osonlashtiradi va shu bilan birgalikda eksport bilan importni ham erkinlashtiradi. Maqolaning yana bir muhim jihat shundan iboratki, JAHON SAVDO TASHKILOTIGA a'zo bo'lish O'zbekiston uchun qanday imkoniyatlar yaratilishi haqida alohida to'xtalib o'tiladi va kerakli ma'lumotlar beriladi. Maqola shuningdek, JAHON SAVDO TASHKILOTIGA a'zo bo'lish O'zbekiston uchun iqtisodiy o'sish imkoniyatini yaratishi mumkinligi haqida ham ma'lumot ta'kidlab o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** JAHON SAVDO TASHKILOTI, global integratsiya, eksport, import, iqtisodiy imkoniyatlar, raqobatbardoshlik, iqtisodiy hamkorlik, GATT.

**Abstract:** Uzbekistan's membership in the World Trade Organization (WTO) is one of the important steps for the country's economic growth. The World Trade Organization is an intergovernmental organization that is engaged in the liberalization of international trade, regulation of trade and political relations. This article discusses Uzbekistan's membership in the World Trade Organization and its impact on the

country's economy. The article analyzes the impact of membership in the World Trade Organization on the economy of Uzbekistan, trade policy and problems arising during the accession process. In addition, Uzbekistan's membership in the World Trade Organization will bring the country closer to the global trading system. This will facilitate Uzbekistan's trade with other countries and, at the same time, liberalize exports and imports. Another important aspect of the article is that it specifically discusses the opportunities that membership in the World Trade Organization will create for Uzbekistan and provides the necessary information. The article also highlights the fact that membership in the World Trade Organization could create opportunities for economic growth for Uzbekistan.

**Keywords:** World Trade Organization, global integration, export, import, economic opportunities, competitiveness, economic cooperation, GATT.

**Аннотация:** Членство Узбекистана во Всемирной торговой организации (ВТО) является одним из важных шагов для экономического роста страны. Всемирная торговая организация — межправительственная организация, занимающаяся либерализацией международной торговли, регулированием торговых и политических отношений. В данной статье говорится о членстве Узбекистана во Всемирной торговой организации и его влиянии на экономику страны. В статье анализируется влияние членства во Всемирной торговой организации на экономику Узбекистана, торговую политику и проблемы, возникающие в процессе вступления. Кроме того, членство Узбекистана во Всемирной торговой организации приближает страну к мировой торговой системе. Это облегчает Узбекистану торговлю с другими странами и в то же время освобождает экспорт и импорт. Еще одним важным аспектом статьи является то, что обсуждаются возможности Узбекистана стать членом Всемирной торговой организации и предоставляется необходимая информация. В статье также подчеркивается тот факт, что членство во Всемирной торговой организации может создать возможности для экономического роста

Узбекистана.

**Ключевые**


**слова:** Всемирная торговая организация, глобальная интеграция, экспорт, импорт, экономические возможности, конкурентоспособность, экономическое сотрудничество, GATT.

**Kirish:**

2024-yilda O‘zbekiston iqtisodiyoti barqaror o‘sishni namoyish etdi. Yalpi ichki mahsulot 6,5 foizga oshib, 115 milliard dollarni tashkil etdi. Xorijiy investitsiyalar hajmi 1,6 barobarga oshib, 34,9 milliard dollarga yetdi. Mamlakatda 10 milliard dollarlik 242 ta yirik va o‘rta loyihalar amalga oshirildi, eksport hajmi esa birinchi marta 27 milliard dollardan oshdi. Tashqi savdo aylanmasi va eksport-import tendensiyalarida 2024-yilda barqaror rivojlanish kuzatildi. Yil yakuniga ko‘ra, tashqi savdo aylanmasi 3,8% ga oshib, 66 milliard dollarni tashkil etdi. Eksport hajmi 8,4% ga o‘sdi, import esa 0,8%ga ko‘paydi. Shunday bo‘lsada, importning 0,8% ga oshishi mamlakat ichki ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratilgan choralar yetarli darajada bo‘lmasligi mumkin. Importning oshishi valyuta balansini yomonlashtirishi yoki chet elga qaramlikni kuchaytirishi mumkin. Agar iqtisodiyot faqatgina eksport va xorijiy investitsiyalarga tayanadigan bo‘lsa, ichki ishlab chiqarishni rivojlantirishda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin.


1-jadval. 2024-yilda O‘zbekistonning iqtisodiy ko‘rsatkichlari o‘sishi.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> <https://postimg.cc/18fpMgPN>



Umuman olganda, 2024-yilda O'zbekiston tashqi savdosi barqaror rivojlanishni namoyish etdi. Ushbu natijalar mamlakatda amalga oshirilayotgan tarkibiy islohotlarning samaradorligi va iqtisodiy salohiyatining kuchayib borayotganidan darak beradi.<sup>2</sup> O'zbekistonning Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lishi iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi. Bundan tashqari eksport va import hajmini oshiradi. O'zbekistonning Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lishi xorijiy investorlarni jalb qilishni osonlashtiradi. Shu bilan birga texnologiyalarning rivojlanishiga ham yordam beradi. Bu esa O'zbekistonning iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va yangi-yangi texnologiyalarni yaratish imkonini beradi.

2-jadval. O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishining iqtisodiyotga ta'siri<sup>3</sup>



<sup>2</sup> O'zbekiston iqtisodiyotining o'sishi <https://uz24.uz/uz/articles/ijtisodiyot-25-1-23>

<sup>3</sup> <https://postimg.cc/XpJWqf47>

Tahlil natijalariga ko‘ra Jahon Savdo Tashkilotiga qo‘shilish mamlakatimizning savdo va iqtisodiy o‘sishiga (85%) hamda investitsiyalarni jalgilishiga (80%) katta ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa mamlakatimizning eksportini oshiradi. Raqobatbardoshlik (75%) hamda sanoat diversifikatsiyasi (75%) ham oshadi. Bu ko‘tarilish ishlab chiqaruvchilarni xalqaro talab va standartlarga moslashishiga undaydi. Tijorat sektorning modernizatsiyasi (70%) ham Jahon Savdo Tashkilotiga a’zo bo‘lishning muhim matijalaridan biri hisoblanadi. Bu transport va elektron tijoratni rivojlanadir. Mehnat bozori rivojlanishi (68%) va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash (65%) orqali yangi ish o‘rinlari paydo bo‘ladi. Bu natijalarning hammasi shuni ko‘rsatadiki, Jahon Savdo Tashkilotiga qo‘shilish O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga yordam beradi.

**SWOT** tahliliga ko‘ra, jahon savdo tashkiloti dunyo iqtisodiyotida juda ham muhim rol o‘ynaydi. Bu tashkilotning uchta asosiy tamoyili mavjud. Bular: xalqaro savdoni erkinlashtirish, savdo bitimlarini oshkora qilish, mamlakatlararo raqobatni qo‘llab-quvvatlash. Bu tashkilot 1947- yildagi GATT<sup>4</sup> bitimi asosida tashkil topgan hisoblanadi. Jahon Savdo Tashkiloti hozirda 164 ta mamlakatni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari dunyo yalpi ichki mahsulotining 95%ini tashkil etadi.<sup>5</sup> **S:** *O‘zbekiston Jahon Savdo Tashkilotiga a’zo bo‘lishining kuchli ya’ni ijobjiy tomonlari shundan iboratki*, boshqa davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarni yaxshilaydi, tovarlar almashishini ko‘paytiradi va tashqi raqobatni kuchaytiradi. Bu tashkilot shuningdek, O‘zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonini tezlashtiradi.<sup>6</sup> **W:** *Bu tashkilotga a’zo bo‘lishning kuchli tomonlari bilan birga kuchsiz ya’ni salbiy tomonlari ham bor.* Bular: Jahon Savdo Tashkilotiga a’zo bo‘lish, O‘zbekistonni dunyo miqyosidagi iqtisodiy o‘zgarishlar va savdo zarbalariga yanada ko‘proq ta’sir

<sup>4</sup> GATT [https://www.wto.org/english/docs\\_e/legal\\_e/gatt47\\_e.htm](https://www.wto.org/english/docs_e/legal_e/gatt47_e.htm)

<sup>5</sup> Jahon Savdo Tashkiloti <https://daryo.uz/2023/12/18/jahon-savdo-tashkilotiga-azo-bolsak-monopolistlarni-yoq-qilishimiz-mumkin-iqtisodiy-tahlilchi>

<sup>6</sup> O‘zbekistonning bozor iqtisodiyoti <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/jahon-savdo-tashkiloti-jst-ga-azo-bulish-uzbekiston-iqtisodiyotiga-qanday-tasir-qiladi>

qiladigan holatga keltirishi mumkin. Bu iqtisodiyotimizni beqarorlashtirishi va tashqi omillarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Jahon Savdo Tashkilotining asosiy maqsadi shuki, savdo va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish. Ammo bu resurslardan ko'proq foydalanish atrof-muhitga zarar yetkazishi va ish joylarining kamayishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, daromadlar tengsizlikni oshirishi mumkin.<sup>7</sup> **O:** *Jahon Savdo Tashkilotiga a'zolik O'zbekiston uchun bir necha imkoniyatlar yaratadi.* Ya'ni mahalliy ishlab chiqaruvchilarning tovarlarini xorijdan import qilingan mahsulotlar bilan raqobatlashishini yaxshilaydi. Bundan tashqari eksportning oshishi tufayli yangi ishlab chiqarish tarmoqlari va kompaniyalar paydo bo'ladi. Bu esa yangi ish o'rinalarini yaratdi va ishsizlikni kamayishiga olib keladi. **T:** *Bu tashkilotga qo'shilishning o'ziga xos muammolari ham bor.* Bular: kadrlar va resurslar yetishmasligi, raqobat va majburiyatlar, iqtisodiy muammolar. Iqtisodiy muammolar qo'shilish jarayoni, hukumat va xususiy sektor uchun yangi muammolarni yuzaga keltiradi. Masalan: ishlab chiqarish jarayonlari va savdo bilan bog'liq yangi talablarga javob berish kerak bo'ladi. Bu muammolarning hammasi Jahon Savdo Tashkilotiga qo'shilish jarayonining murakkab va katta talablar bilan bog'liq ekanligini ta'kidlab o'tadi.<sup>8</sup>

**PESTEL** tahliliga ko'ra, O'zbekistonning jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish yo'lidagi iqtisodiyot rolining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik, ekologik va huquqiy jihatdan ko'rib chiqib, tahlil qilsak.

**Siyosiy:**

Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lish O'zbekistonning xalqaro savdo tizimiga integratsiyasini kuchaytiradi. Bu esa mamlakatning xalqaro maydondag'i siyosiy nufuzini oshiradi. Ammo bu jarayon milliy qonunchilik va siyosatning Jahon Savdo Tashkiloti talablariga moslashtirilishini talab qiladi.

**Iqtisodiy:**

Jahon Savdo Tashkilotiga a'zolik savdo xarajatlarini kamaytiradi va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishi mumkin. Bu jarayon O'zbekiston iqtisodiyotining 0,5%ga o'sishiga olib kelishi mumkin. Biroq ta'riflarning pasaytirilishi mahalliy ishlab chiqaruvchilarga

<sup>7</sup> Daromadlar <https://ojs.nordicun.uz/index.php/nordic/article/view/457/243>

<sup>8</sup> Jahon Savdo Tashkilotiga qo'shilishi <https://uzbwto.uz/oz/wto-accession>

raqobat bosimini oshirishi mumkin.<sup>9</sup>

**Ijtimoiy:** Jahon Savdo


Tashkilotiga qo'shilish orqali iqtisodiy o'sish va bandlik darajasining oshishi kutilmoqda. Bu esa aholi farovonligiga ijobiyligi ta'sir ko'rsatadi. Ammo ba'zi tarmoqlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qisqa muddatli yo'qotishlar ishsizlikning oshishiga olib keladi. Bu jarayon esa ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.<sup>10</sup>

**Texnologik:** Jahon Savdo

Tashkilotiga a'zolik xorijiy investitsiyalarni jalgan qilish orqali texnologik rivojlanishni tezlashtiradi. Bu esa mahalliy korxonalarning texnologik yangilanishiga va innovatsiyalarga bo'lgan ehtiyojni oshirishi mumkin. **Ekologik:** Jahon Savdo Tashqi standartlariga moslashish ekologik me'yorlarga rioya qilishni talab qiladi. Bu esa O'zbekistonda ekologik barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi.

**Huquqiy:** Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lish milliy qonunchilikning xalqaro savdo qoidalariga moslashtirilishi talab etiladi. Bu esa huquqiy tizimning takomillashtirilishiga olib keladi. Ammo bu jarayon murakkab va vaqt talab qiladi. O'zbekistonning Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lishi iqtisodiyotga ko'p qirrali ta'sir ko'rsatishi mumkin.<sup>11</sup>

3-jadval. SWOT va PESTEL tahlili<sup>12</sup>



<sup>9</sup> Siyosiy tahlil [https://uz24.uz/uz/articles/jst-10-19?utm\\_](https://uz24.uz/uz/articles/jst-10-19?utm_)

<sup>10</sup> Ijtimoiy muammolar [https://www.spot.uz/oz/2023/12/06/wto-perspectives/?utm\\_](https://www.spot.uz/oz/2023/12/06/wto-perspectives/?utm_)

<sup>11</sup> Huquqiy tomonlama [https://uz24.uz/uz/articles/jst-10-19?utm\\_](https://uz24.uz/uz/articles/jst-10-19?utm_)

<sup>12</sup> <https://postimg.cc/QVTkcC4D>

Izoh: O‘zbekistonning JSTga a’zo bo‘lishi ijobiy jihatlari ya’ni kuchli tomonlar va imkoniyatlar 80-85% ni tashkil etsa, salbiy tomonlari ya’ni zaiflik va tahdidlar 65-75% deb baholanishi mumkin. JSTga a’zo bo‘lishning eng katta ta’siri iqtisodiy jihatdan bo‘ladi (85%), chunki savdo hajmi, investitsiyalar va raqobatga ta’siri katta. Siyosiy va huquqiy omillar ham sezilarli rol o‘ynaydi (65-75% dan). Ijtimoiy, ekologik va texnologik jihatlar esa o‘rtacha ta’sirga ega.

### Xulosa:

Xulosa qilib shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, O‘zbekistonning Jahon Savdo Tashkilotiga (JST) a’zo bo‘lishi mamlakat iqtisodiyoti uchun katta ahamiyatga kasb etadi. Ya’ni uning global savdo tizimiga integratsiyasini ta’minlaydi. Bu jarayon esa iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi ya’ni iqtisodiyotimiz 85% o‘sadi, eksport hajmini oshiradi, yangi bozorlarga kirish imkoniyatini yaratadi, raqobatni kuchaytiradi va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni osonlashtiradi. Maqolada aytilganidek, bu haqida tadqiqotchilar ham o‘z fikrlarini bildirib o‘tgan. Shu bilan birga, Jahon Savdo Tashkilotiga a’zo bo‘lishga tayyorlashda bir qator muhim omillar borligini ham ta’kidlab o’tadi. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, bu jarayon savdoni erkinlashtiradi. Bunday imkoniyatlar O‘zbekistonda yangi ishlab chiqarish tarmoqlarini yaratishga, ish o‘rinlarini oshirishga yordam beradi. Buning natijasida esa ishsizlik bo‘lish ehtimoli kamayadi. Biroq maqolada aytilganidek, bu jarayonning ham o‘ziga yarasha salbiy tomonlari ham mavjud. Ya’ni raqobatlar kuchayadi va iqtisodiy beqarorliklar vujudga keladi. Lekin bunday qiyinchiliklarni va salbiy ta’sirlarni minimallashtirish uchun zarur choralarni ko‘rish lozim. Bulardan tashqari O‘zbekistonning jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lish yo‘lidagi iqtisodiyot rolining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik, ekologik va huquqiy jihatlari ham ko‘rib chiqilgan va alohida to‘xtalib tahlil qilingan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:****Elektron manbalar:**

1. <https://postimg.cc>
2. <https://uz24.uz>
3. <https://postimg.cc>
4. <https://lex.uz>
5. <file:///C:/Users>
6. <https://postimg.cc>
7. <https://www.wto.org>
8. <https://daryo.uz>
9. <https://aniq.uz>
10. <https://ojs.nordicun.uz>
11. <https://uzbwto.uz>
12. <https://postimg.cc>
13. <https://uz24.uz>
14. <https://www.spot.uz>
15. <https://uz24.uz>